

## **Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>**

2026- yil yanvar-mart oylarini dastlabki ma'lumoti


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### **I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi**

2026- yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **1 4096,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,6** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **2 526,2** mlrd. so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **11570,2** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **111,2** % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan (**3 171,9** ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **613,0** ming so'mga yoki **19,3** % ga o'sib, **3 784,9** ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilni tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 391,8** mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **74,2** % ini, jumladan, **39,8** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2025- yil mart oyi hajmi va 2026- yil mart oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

## **II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi**

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026- yil yanvar-mart oylari

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>14 096,4</b>	<b>100,0</b>	<b>114,6</b>
Qarshi shahar	2 261,4	16,0	112,9
Shahrisabz shahar	379,8	2,7	124,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor tumani	334,4	2,4	116,4
Dehqonobod tumani	257,1	1,8	114,6
Qamashi tumani	534,6	3,8	116,7
Qarshi tumani	607,4	4,3	123,9
Koson tumani	587,2	4,2	115,5
Kitob tumani	610,2	4,3	116,3
Mirishkor tumani	354,7	2,5	115,7
Muborak tumani	406,2	2,9	114,1
Nishon tumani	336,5	2,4	117,6
Kasbi tumani	377,8	2,7	116,5
Ko'kdala tumani	159,6	1,1	117,1
Chiroqchi tumani	294,7	2,1	117,0
Shahrisabz tumani	310,2	2,2	116,3
Yakkabog' tumani	449,4	3,2	117,3

### **Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

## **III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **18,8 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **4,3** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **23,7 %** ga (o'sishiga hissasi **3,4** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **3,9 %** ga (o'sishiga hissasi **0,7** band), savdo xizmatlari **25,0 %** ga (o'sishiga hissasi **3,8** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,0 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,4** band) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **1,7 %** ga (o'sishiga hissasi **0,1** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylari)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>11570,2</b>	<b>14096,4</b>	<b>114,6</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	342,5	416,7	109,0
moliyaviy xizmatlar	1 198,9	1 550,2	126,5
transport xizmatlari	1 569,7	1 956,9	116,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 337,0</i>	<i>1 706,4</i>	<i>120,4</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	239,9	319,4	121,1
savdo xizmatlari	1 685,9	2 066,5	116,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	140,0	158,9	107,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	395,2	405,9	102,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	121,3	137,8	109,0
ijara xizmatlari	162,5	185,1	106,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	240,8	295,8	113,2
shaxsiy xizmatlar	265,8	319,3	108,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	60,6	83,9	129,2
boshqa xizmatlar	302,8	364,9	113,9


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari **25,0** %, transport xizmatlari **23,7** %, moliyaviy xizmatlari **18,8** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,0** %, boshqa xizmatlar **4,4** % ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari **17,5** foiz, transport xizmatlari **14,7** foiz, moliyaviy xizmatlar **11,4** foiz, boshqa xizmatlar **3,3** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,5** foiz ulushni tashkil etgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2026- yil yanvar-mart oylari, %**



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **85,1** foizni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **2,9** foizga o'sgan.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda** o'sish kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi **351,3** mlrd. so'mga yoki **26,5** foizga o'sishi kuzatilgan.

**moliyaviy va sug'urta xizmatlariga yordamchi xizmatlar o'sish sur'ati dinamikasi**



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **avtotransport xizmatlari (120,4 %)**, **pochta va kuryerlik xizmatlarida (123,6 %)** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **100,0 %** ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **122,8 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarni to'loviga yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 180100, Qashqaryo  
viloyati, Mustaqillik ko'chasi, 2 B-  
uy **Pochta:** [qashstat@umail.uz](mailto:qashstat@umail.uz)  
**Tel.:** 75-221-05-27, 75- 221-32-44

